



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**  
**TILLAR FAKULTETI**  
**O'ZBEK VA RUS TILLARI KAFEDRASI**

**FILOLOGIK TADQIQOTLARNING**  
**YANGI BOSQICHI:**  
**ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA**  
**ISTIQBOLLAR**  
**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI**

2023-yil, 15-may

BUXORO – 2023

## ILMIY ANJUMANNING DASTURIY QO'MITASI

1. M.I. Daminov – Buxoro davlat Pedagogika instituti direktori, rais;
2. Sh.N. Murodov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini;
3. A.A. Ikramov – Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo;
4. D.A. Tosheva – Tillar fakulteti dekani, a'zo;
5. N.I. G'aybullayeva – Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, a'zo;
6. R.A. Saidova – O'zbek va rus tillari kafedrasida mudiri, a'zo;
7. G.B. Rustamova – O'zbek va rus tillari kafedrasida dotsenti, a'zo;
8. S.X. Mahmudova – O'zbek va rus tillari kafedrasida dotsenti, a'zo;
9. M.Sh. Boltayeva – O'zbek va rus tillari kafedrasida katta o'qituvchisi, a'zo;
10. Z.A. Salixova – O'zbek va rus tillari kafedrasida katta o'qituvchisi, a'zo;
11. D.H. G'afurova – O'zbek va rus tillari kafedrasida o'qituvchisi, a'zo;
12. N.N. Mirjonov – O'zbek va rus tillari kafedrasida o'qituvchisi, a'zo;
13. M.U. Usmonova – O'zbek va rus tillari kafedrasida o'qituvchisi, a'zo;
14. N.O. Avazova – O'zbek va rus tillari kafedrasida o'qituvchisi, a'zo;
15. H.S. Ubaydova – O'zbek va rus tillari kafedrasida o'qituvchisi, a'zo;

## ILMIY ANJUMANNING TASHKILY QO'MITASI

1. Sh.N. Murodov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais;
2. A.A. Ikramov – Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, rais muovini;
3. Sh.A. Raximov – Ishlar boshqarmasi boshlig'i, a'zo;
4. D.A. Tosheva – Tillar fakulteti dekani, a'zo;
5. N.I. G'aybullayeva – Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, a'zo;
6. R.A. Saidova – O'zbek va rus tillari kafedrasida mudiri, a'zo;
7. G.B. Rustamova – O'zbek va rus tillari kafedrasida dotsenti, a'zo;
8. S.X. Mahmudova – O'zbek va rus tillari kafedrasida dotsenti, a'zo;
9. M.Sh. Yunusova – O'zbek va rus tillari kafedrasida o'qituvchisi, a'zo;
12. N.N. Mirjonov – O'zbek va rus tillari kafedrasida o'qituvchisi, a'zo;
13. T.L. Chxetiane – O'zbek va rus tillari kafedrasida o'qituvchisi, a'zo;
14. L.M. Mustafoyeva – O'zbek va rus tillari kafedrasida o'qituvchisi, a'zo.

To'plam O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 39-son bayoni 20-bandi birinchi xatboshisida belgilangan 2023-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risidagi topshirig'i, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 2023-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida 118-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishi maqsadida 2023-yil 5-may kuni Buxoro davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti O'zbek va rus tillari kafedrasida "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

### Mas'ul muharrir:

R.A.Saidova – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

### Taqrizchilar:

G'.N.Murodov – filologiya fanlari doktori, professor

N.I.G'aybullayeva – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Aytish kerak yuziga .

Anvar Obidjon “ Ko’zguning oynakka yozgan xati” she`rida hayotga teran nigoh bilan qaraydigan kishilar timsoli “Ko’zgu” obrazi orqali ochib berilgan.

Maslahat shu ikkimiz

Kuchni birga to’plasak.

Keyin Kuz va Bahorni

Oramizdan quvlasak.

O’rtachalik,iliqlik

Kimga ham darkor,qiziq!

Bo’lish kerak hayotda

Yo g’irt sovuq,

Yo issiq.

Anvar Obidjon ijodi bolalar adabiyotida ulkan iz qoldirgan bolalar shoiri. Uning har bir ijod mahsuli yosh kitobxonlar qalbida o`chmas iz qoldiradi.

### Adabiyotlar:

1. Barakayev R. O’zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. T., “Fan”, 2004 2. Murodov M. Oltin sandiq ochildi. Toshkent, “O’qituvchi”, 1994.

2. Safarov O. O’zbek xalq og’zaki ijodi. T., “Musiqqa”, 2010; yana: Bolalik kuychisi. T., “Fan”, 1978; yana: Bolalarni erkalovchi o’zbek xalq qo’shiqlari. T., 1985; yana: Oliy o’quv yurtlarida bolalar adabiyotini o’qitish muammolari. “Til va adabiyot ta’limi” j., 1999y., 3-4 - sonlar.

3. O’zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon. T. “Fan”, 1989.

## ЮСУФ АМИРИЙ - МАҲОРАТЛИ ШОИР

### Маърифат Ражабова

*БухДУ Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси  
доценти, ф.ф.д.*

### Аҳророва Зуфнунабегим

*Филология ва тилларни ўқитиш (ўзбек тили)  
таълим йўналиши IV босқич талабаси*

*Аннотация.* Мақолада XV асрда яшаб, туркий ва форсий тилда ижод этган туркийгўй шоир Юсуф Амирий ҳамда унинг бизгача етиб келган адабий мероси хусусида сўз боради.

*Калит сўзлар:* Юсуф Амирий, девон, «дахнома», «чогир ва банг» мунозараси, қасида, туюқ, газал.

Юсуф Амирий XV асрда Бойсунқур Мирзо ҳукмронлиги даврида яшаб ижод этган туркийгўй шоир. У туркий ва форсий

тилда ижод қилган. Шоирнинг бизгача бир девони ҳамда «Даҳнома», «Чоғир ва Банг» мунозараси етиб келган. Шоирнинг ҳаёти ва ижодий фаолияти билан боғлиқ маълумотларни Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асарида ўқиймиз: “Мавлоно Амирий - турк эрди ва туркча шъри яхши воқеъ бўлубдур, аммо шуҳрат тутмабдур. Ва бу байт анинг «Даҳнома» сидиндур:

Не емақдин, не уйқудин солиб сўз,  
Емақдин тўюб уйқудин юмуб кўз” [1:18].

«Тазкират уш-шуаро» муаллифи Давлатшоҳ Самарқандий “Мавлоно Юсуф Амирий султон Шоҳруҳ Мирзо замонида катта шуҳратга эришган шоирлардан биридир. У оддий ҳаёт кечирган, айтишларича, амирлар ва машҳур амалдорлар унга ғамхўрлик кўрсатганлар. Буюк ҳоқон Шоҳруҳ султон ва унинг улуғ авлодлари, амалдорлари шаънига Амирий кўп қасидалар битган. Султон Бойсунқур мирзо шарафига битилган қуйидаги қасида ҳам уникидир:

Делам бедард гирифтор гашт дар ғаме у,  
Магар кунад шоҳи олам белуфт дар монаш”, - деб ёзади.

Ўзбек мумтоз адабиёти жанрлари такомлида Юсуф Амрининг алоҳида ўрни бор. Боиси, Юсуф Амрийга қадар тартиб берилган девонлар фақат ғазаллардан иборат бўлса, унинг лирик мероси таркибида ғазал билан бирга таржеъбанд, туюқ каби лирик тур намуналари учрайди. Шоир ғазал билан бирга туюқнинг гўзал намуналарини ҳам яратиб, бу жанрнинг такомлига муносиб ҳисса қўшди. Жумладан,

Гар десам,боғи висолинг нори бор,  
Олма деб аччиғлаб айтур: Нори бор!  
Ишқ нахли кўз ёшимдин сув ичиб,  
Баргу борини шарарлиғ нори бор.

Юсуф Амрийнинг юқорида келтирилган туюғида “нори” сўзи тажнисни ҳосил қилган. Биринчи мисрада “анор”, иккинчи мисрада “нари бор”, тўртинчи мисрада “ўт, олов” маъноларда келган.

Туюқ жанри, асосан, ишқий мавзуда ёзилган. Юқоридаги туюқда маъшуқа висолдан умид узган ошиқ ҳолати тасвирланган бўлса, қуйидаги туюқда маъшуқанинг “ноз ўқидан” “жароҳатланган” лирик қаҳрамон кайфияти бадий талқин этилган.

Жилва айлаб сакратурда саркаш от,  
Ноз ўқин жавлон этиб жонимға от.  
Итларинг хайлиға хизмат айладим,  
Қўйдилар аҳли вафо деб манга от.

Мазкур туюқда “от” сўзи тажнисли сўз бўлиб келган. Биринчи мисрада “хайвон”, иккинчи мисрада “отмоқ”, тўртинчи мисрада “исм” маъносида келган.

Юсуф Амирийнинг бизгача «Даҳнома», «Чоғир ва Банг» мунозараси ҳамда лирик ғазаллари етиб келган. Лирик асарларида ижтимоий–фалсафий қарашлари билан ишқ-муҳаббат ҳақидаги мушоҳадалари ҳам ўзининг бадий ифодасини топган.

Юсуф Амирий меросида ғазаллар сони кўп бўлмаса-да, бадий баркамоллиги билан эътиборни тортади. Шоир ғазалларида ҳаётсеварлик улуғланади, вафосизлик, зулм қораланади. Маъшуқа васлидан умидворлик ошиқ кўнглига таскин беради. Лирик қаҳрамоннинг мақсад муддаоси, эзгу ниятлари замирида шоирнинг ишқ, ҳаёт, яхшилик ва ёмонлик ҳақидаги қарашлари ўзининг бадий ифодасини топади. “Хаёлинг хайли, эй жоним чароғи” мисраси билан бошланувчи ғазалида қўлланган қуйма иборалар, тамсил сифатида танланган ҳаётий ҳолатлар, шу билан бирга халқона оҳанг Юсуф Амирийнинг туркий ғазалчиликда ўзига хос услубга эгалигидан далолат беради. Ғазалнинг лирик қаҳрамони ошиқ. У маъшуқадан бошқани кўрмайди. Шунинг учун ёр юзи ошиқнинг кўзига айланган.

Хаёлинг хайли, эй жоним чароғи,

Турур кўзумдаву кўнглумда доғи [2: 202] .

Мумтоз адабиётда рақиб образига кўп мурожаат қилинади. Бу образ орқали жамиятда учраб турадиган бадбин кишиларнинг хусусиятлари тасвирланади. Улар ошиқ ва маъшуқ ўртасида тўсиқ, уларнинг муҳаббатига раҳна солувчи, шу орқали инсон ва жамият ўртасида қарма – қаршилиқлар, муаммоларга урғу берилган. Шоир ғазалнинг иккинчи байтдида халқда ишлатиладиган “кўзи чиқсин” қарғишидан фойдаланади. Уни кўра олмаган рақибнинг эса кўзи чиқсин, дейди шоир.

Юзунг кўрар кўзумдур, гар рақибинг,

Кўра олмас они чиқсин қароғи.

Кейинги байтда “зулф” ва “кўнги” орқали (синидоха – қисм орқали бутунни ифодалаш) маъшуқ ва ошиқ образига ишора қилинган. Биламизки, зулф жингалак бўлади. Шоир зулфнинг ана шу ҳолатидан маҳорат билан фойдаланган. У бошдан оёқ эгри бўлгани учун кўнги билан келиша олмайди, - дейди шоир.

Қачон зулфунг кўнгул бирлан тузолгай,

Ким, эгридур анинг боштин-аёғи.

Ғазалнинг кейинги байтида шоир ошиқнинг ҳолатини бадий ифодалаш учун яна ҳаётий ҳолатни мисол қилиб келтиради. Ошиқ ўз

ҳолини маъшуқа олдида қанчалик ошкор қилмасин, у эшитмайди. Бу худди рубобнинг ўз куйини эшитмагани кабидир.

Фигонимни рубоб олиға, эй дўст,  
Не айтойин чу эшитмас қулоғи.

Мумтоз шеъриятда маъшуқа кўзи жон олувчи, фитна кўзғотувчи сифатлари билан таърифланади. Халқда “кўз кўзга тушганда меҳр пайдо бўлади” деган гап бор. Худди ана шу халқона қарашдан ошиқнинг ҳолатини тасвирлаш учун фойдаланилган. Маъшуқа кўзи ошиқ кўнглига меҳр тухмини сепмади, у сепган меҳр уруғи экиндан, яъни ошиқ кўнглидан йироқ тушган. Шоир бу билан маъшуқанинг ошиққа нисбатан эътиборсизлиги, унинг муҳаббатини назар писанд қилмаганлигига ишора қилади.

Кўзунг кўнгулда экмас меҳр тухмин,  
Ажаб йўқ, тушмади экин йироғи.

Ғазал мақтасида шоир яна маъшуқа зулфига мурожаат қилади. Зулф - мумтоз шеъриятда кўп қўлланувчи тимсол. Зулфнинг маъноси сочдир, у ўтмиш адабиётида гесу, турра ёки кокил деб ҳам аталган. У маъшуқанинг гўзаллигини намоён қилувчи узв бўлиши билан бирга, тасаввуф шеъриятида моддий дунё тимсоли сифатида ҳам қўлланади. Мақтаёда зулф (синеқдоха) орқали маъшуқга ишора қилинган. Маъшуқа Амирийнинг олдидан ўтди, зулфнинг хушбўй бўйидан унинг кўнгли паришон (мушавващдур) бўлди:

Амирий олидин то ўтти ул зулф,  
Насимидин мушавващдур димоғи.

Кўринадики, шоир лирикасида ғазалнависликда мавжуд анъанавий тасвир воситаларига мурожаат қилиш билан бирга, ўзига хос тасвирлар яратилгани ҳам кузатилади.

Юсуф Амирий ғазаллари ҳажми асосан 7 байтлidir. Ғазалларининг тили содда ва ширали. Қўлланган қофия ва радифлар оҳангдорликни таъминлаши билан бирга асосий ғоя тарғибига бўйсундирилган.

Хулоса қилиб айтганда, Юсуф Амирий туркий адабиётда ғазалнавислик анъанаси ўзига хос услубда давом эттирди. Шоир адабий мероси ўзидан кейин мумтоз адабиёт тараққиёти учун беминнат хизмат қилди.

### **АДАБИЁТЛАР:**

1. Алишер Навоий. Мажолис ун - нафоис. МАТ. XX жилдлик. XIII жилд. – Т.: Фан, 1997.

2. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 2- жилд. (XIV–XV асрнинг бошлари). Тузувчи, изоҳ ва шарҳлар муаллифи: филология фанлари доктори, профессор Насимхон Раҳмон. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 320.

ЮСУФ АМИРИЙ - МАҲОРАТЛИ ШОИР Маърифат Ражабова Аҳророва Зуфнунабегим .....	154
O'ZBEK VA TURK BOLALAR ADABIYOTINING MUSTARAK XUSUSIYATLARIGA XOS AYRIM MULOHAZALAR Rustamova Gavhar Bahronovna Yoriyeva Moxigul Oltinova .....	158
POETIKADA YANGILANISH ASOSLARI Ro'zimurodova Norbibi Chorixo'jayevna	160
MUQIMIY "SAYOHATNOMA" LARINING NASHRLARARO QIYOSIY TAHLILI H.O. Safarova X.I. Baxtiyorova.....	163
STRUKTUR-SEMIOTIK TAHLILDA NUTQ TIZIMI HAMDA SEMIOLOGIK TIZIM MASALASI Saidova Rayhonoy Abdug'aniyevna.....	167
"FARHOD VA SHIRIN" DOSTONI HAMD BOBINING G'UYAVIY-BADIY TAHLILI Safarova Shahlola Amin qizi .....	171
БАХАУДДИН ЭЛЬ-ШАХ, ВЕЛИКИЙ УЧИТЕЛЬ ДЕРВИШЕЙ Самандарова Д. ...	174
ПРЕСТУПЛЕНИЕ РАСКОЛЬНИКОВА В ПРОИЗВЕДЕНИИ ДОСТОЕВСКОГО Самадова Барчиной Мирзаевна Гафурова Дилбар Хакимовна.....	176
ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗОВ В РОМАНЕ УТКИРА ХАШИМОВА "МЕЖ ДВУХ ДВЕРЕЙ" Турсунова Озода Умидовна .....	179
O'ZBEK NIKOYALARIDA XALQ KULGI MASALASI Xaitov Xamza Axmadovich..	181
RAUF PARFI SHE'RLARIDA TABIAT TASVIRI ORQALI INSON HIS - TUYG'ULARINING AKS ETTIRILISHI Sharfova Gulshoda .....	185
ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ДОМИНАНТЫ РОМАНА Д. РУБИНОЙ «БЕЛАЯ ГОЛУБКА КОРДОВЫ» Чхетиани Темурбек Леривич .....	188
ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA ZAMON VA MAKON MUAMMOSINING O'RGANILISHI Cho'liyeva Nilufar A'zam qizi .....	192

### **III SHO'BA. TIL VA ADABIYOTNI O'QITISHDA INNOVATSIYA HAMDA INTEGRATSIYA**

TÜRK DÜNYASININ ENTEGRASYONU SÜRECİ VE TÜRKOLJİ ÜZERİNE DEĞERLENDİRMELER Doktor Bülent Bayram .....	196
МЕТОДИКА ПРОВЕДЕНИЯ ЗАНЯТИЙ С ЭЛЕМЕНТАМИ «ТВОРЧЕСКОГО ЧТЕНИЯ» ПО РАССКАЗУ Л.ПЕТРУШЕВСКОЙ «ГЛЮК» Агламов Тахир Хусаинович.....	196
BOTH CREATIVE AND TEACHER Amonov Ulug'murod Saparova Shahlo .....	200
РОЛЬ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПО ПОВЫШЕНИЮ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗАХ Баракатова Д.А. ....	202
СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА Буриева Мухаббат.....	205
ИНТЕРАКТИВНОЕ ОБУЧЕНИЕ КАК СПЕЦИАЛЬНАЯ ФОРМА ОРГАНИЗАЦИИ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ Эргашева Дилфуза.....	208
УСТНОЕ НАРОДНОЕ ТВОРЧЕСТВО КАК СРЕДСТВО УМСТВЕННОГО И ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ Гафурова Дилбар .....	212
YUQORI SINIF O'QUVCHILARIGA FONETIKA BO'LIMINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH (5-sinf ona tili darsligi asosida) Maxmudova Sadoqat Xolmatovna Tursunova Orzigul .....	216